

KREATIVLIKNING RIVOJLANISHIDA TAFAKKUR PSIXOLOGIK OMILLARI SIFATIDA

Namangan viloyati Kosonsoy tumani Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limiga qarashli 19-umumta'lim maktabi amaliyotchi psixologi
Irisova Gulzoda

Annotasiya: Talabalarning o'quv faoliyatidagi faolligini oshirishda o'quv jarayonida qo'llanilayotgan topshiriqlarning ilmiy yoki maishiy xarakterga egaligi, talabalar tafakkurini rivojlantirishning psixologik mexanizmlari, uni rivojlantirishda ishtirok etuvchi motivasion, uslubiy, tipologik osttuzilmaning o'ziga xos roli va o'rni masalalarini yoritishga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'z: Kreativ, individual va guruh, talabalar tafakkuri, o'quv materiallari, hamkorlik faoliyati.

Mustaqillik yillari mamlakatimizda yoshlarning aqliy salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur imkoniyatlarni yaratish masalasiga alohida e'tibor qaratilib, talabalarning o'quv faoliyatidagi faolligini yuksaltirish zaruratini orttirmoqda. Zero, o'zlashtirishga oid kasbiy faoliyat uchun zarur bilim, ko'nikma, malakalarning egallanishi, muammolar ustida ishlashda mustaqil va ijodiy yondashuvni ta'minlovchi tafakkurni rivojlantirishning psixologik mexanizmlarini takomillashtirish zaruratini yanada dolzarblashtirmoqda.

Talabalarda olib borilgan tadqiqotlarimiz o'quv jarayonida qo'llanilayotgan topshiriqlarning ilmiy yoki maishiy xarakterga egaligi bilan ajralib turadi. Ilmiy xarakterdagi topshiriqlar mavzu doirasidagi muammolarning mohiyatini ochishga qaratilgan bo'lib, aniq qonuniyatlarni, zarur shart-sharoit va standart talablarga amal qilishni taqozo etadi. Masalan, psixologiya ta'lim yo'nalishi talabalariga "Tafakkur xususiyatlarini o'lchash"ga doir topshiriqlar taqdim etilishi talabalarning tafakkur xususiyatlarini tadqiq qilish imkoniyatlarini kengaytirdi. Masalan, biologiya ta'lim yo'nalishi talabalarida G.I.Mendelevning irsiy belgilarni uzatilish prinsiplari to'g'risidagi ma'lumotni o'zlashtirilishi o'rganildi. Bunda, ayrim holatlarda talabalar tafakkurining rivojlanishi bilan bog'liq muhitda ularga nostandart topshiriqlar ustida ishlashlariga to'g'ri keladi. Bunday sharoitda talabalarning mustaqil mulohaza yuritishlari uchun zarur topshiriqlar o'ta muhimdir. Buning uchun biz muammoli topshiriqlardan foydalanib, talabalarning maishiy xarakterdagi masalalarni echishga doir topshiriqlar ustidamulohaza yuritishlariga imkon yaratib berdik. Tadqiqotimizda kundalik turmushda foydalaniladigan ayrim jihozlarning noodatiy holatlarda qo'llash mumkin bo'lgan xususiyatlari to'g'risida topshiriq berish orqali talabalar tafakkurini shakllantirish vazifasi qo'yildi. Berilgan topshiriqlarning standart-

nostandart xarakterga egaligi talabalarda muayyan o'quv motivatsiyalarini uyg'otishga turtki berishi esa asos sifatida qabul qilindi. Topshiriqlarni bajarilish xususiyatiga ko'ra, ularvaqt nuqtainazaridan qisqavauzoqizlanish nitaqozo etuvchi, qisqa muddatli va uzoq muddatli topshiriqlarga ajratildi. Zero, mazkur yondashuv ta'lim jarayonida qo'yiladigan muammoning mohiyati hamda fan mavzularini o'zaro bog'liqligini inobatga olishni taqozo etdi. Shuningdek, topshiriqlarning natijaga erishish xususiyatiga ko'ra, individual va guruhli hal etish xarakteriga egaligi tadqiqotimizning tub maqsadini anglash imkoniyatini kengaytirishi nazarda tutildi. Topshiriqlarni individual, ya'ni har bir talaba tomonidan yakka tartibda bajariladigan va guruhli tarzda hal etilishiga ko'ra ikkiga ajratildi.

Talabalar tafakkurini rivojlantirish psixologik mexanizmlarining ikkinchi osttuzilmasini esa "Tafakkurni rivojlantirishda ishtirok etuvchi motivasion, uslubiy, tipologik osttuzilmasi"ga ajratish imkoniyatini yaratdi. Mazkur ost tuzilma tafakkur rivojlanish jarayonida bevosita ishtirok etadigan, talabani faoliyatida namoyon bo'luvchi qator komponentlardan iborat. Yuqorida tahlil qilingan osttuzilmada tafakkur rivojlanishida ta'lim topshiriqlarining o'zni masalasi talqin etilgan edi. Talaba tafakkurini rivojlantirish jarayonida ta'lim topshiriqlari ikkinchi osttuzilmaning tarkibiy qismidagi komponentlar bilan o'zaro aloqadorlikda kechishiga urg'u qaratildi. Talabalarga Edvard de Bononing tafakkurni rivojlantirishga doir nostandart topshiriqlar hamda E.E.Tunikning "Ijodiy tafakkurni aniqlash testi" bo'yicha taqdim etilgan vazifalar ustida ishlash taklif etildi. Talabalarda esa mazkur topshiriqlar echimi jarayonida nisbatan yuqori motivatsiya namoyon bo'lib, bu ularning topshiriqlar ustida yakka va hamkorlikda ishlash xususiyatlarida yaqqol aks etdi. Shuningdek, o'quv faoliyati motivatsiyalari o'quv maqsadlarini to'g'ri shakllanganligi, o'quv mashg'ulotiga qiziqish va tarkib topganlik komponentlaridan iboratligi ham inobatga olindi.

Ikkinchi holatda biz topshiriqlar ustida ishlash vaqtida talabalarining tafakkur uslublari va tiplari ta'lim yo'nalishiga, ta'lim bosiqchi, har bir talabada o'ziga xos tarzda farqlanishi kuzatildi. Talabalar o'quv faoliyatida ta'lim muammolari, topshiriqlar va o'quv materiallari ustida ishlash vaqtida xilma-xil tafakkur uslubiga egagi kuzatildi.

Ta'lim jarayonida bir kurs yoki bir guruhdagi talabalarining tafakkur uslublari va tiplarida ham keskin tafovutlar mavjudligi maqsadli kuzatish metodi yordamida amalga oshirildi. Bu holat ularning o'quv materiallarini idrok etish, mavjud bilim, ko'nikma va malakalari, tafakkur uslublari va tiplari tafovutlanishi mumkinligini tasdiqladi. Kuzatishlarimizning ko'rsatishicha, bir guruh talabalar ichidan original ishlarni amalga oshiruvchi, yangilik yaratishga moyil (10 foiz talabalarda sintetik tafakkur uslubi), muammolarni tez ilg'ovchi, vaziyatlardan silliq chiqishga xayrixohlik (30 foiz talabalar g'oyaviy tafakkur uslubi), shaxsiy tajribasiga tayanadigan, tez

natijalar olishga intiluvchan, ish muhiti va vaziyatlarga tez moslashuvchan (25 foiz talablarda pragmatik tafakkur uslubi), ta'lim jarayonidagi muammolarga atroflicha va tizimli yondashuvchan (25 foiz talabalarda analitik tafakkur uslubi), masalalarni aniqlik va nuqsonlarni tuzatishga sezgir (10 foiz talabalar rasional tafakkur uslubli) talabalar uchrashi aniqlandi. Ta'lim jarayonida talabalar tafakkurini rivojlantirish uchun o'quv materiallarini tayyorlash jarayonida pedagoglar mazkur holat yuzasidan etarlicha ma'lumotga ega bo'lishlari foydalidir. O'z navbatida, ushbu uslublarning har biri talabada uchraydi, ammo bittasigina ustuvor bo'lishi mumkin xolos. Shuning uchun ta'lim jarayonida talabalar bilan ishlashda uslublarni barchasi ularda mavjudligi o'qituvchi faoliyatiga engillik tug'dirishi mumkin. O'z navbatida tafakkur tiplari ham uslublar singari ko'rinish olsa-da, ammo ta'lim yo'nalishlariga ko'ra, tafovutlanishi mumkinligini ko'rsatdi.

Talablarda ta'lim jarayonida o'quv materiallarini o'zlashtirish, masala va topshiriqlar ustida ishlash jarayonida:

- axborotlarni o'zlashtirishda predmetli harakatlarga tayanadigan, aqliy operatsiyalarni izchil amalga oshiradigan (predmetli tafakkur tipi); mulohazalarni formula, struktura ko'rinishda ifodalashga tayanadigan (simvolli tafakkur tipi);

- o'quv materiallari va axborotlarni qaror qabul qilish asosida egallaydigan (belgili tafakkur tipi);

- fikrlarini obrazli ifodalashga, fikrning yakunida yangi obrazlar hosil qilish qobiliyatiga suyanadigan (obrazli tafakkur tipi) mavjudligi aniqlandi. Qayd etilgan holatlar talabalar tafakkurini shakllantirishning muhim komponentlaridan biri sifatida qarash imkoniyatini kengaytirdi. Ma'lumki, talabalar tafakkurini rivojlantirish mexanizmining yana bir tarkibiy elementi tafakkur xususiyatlari bo'lib, ayrim o'rinlarda tafakkurning sifati tarzida ham qo'llaniladi. G.Yu.Ayzenk o'zining intellektuallik modelida fikrlash kuchi va tezligini uning sifatini belgilovchi mezon tarzida kiritgan edi. Biz ushbu holatga uyg'un tarzda hamda empirik o'rganish ko'rsatkichlariga asoslanib, tafakkurning aniqligi (g'oyani aniq ifodalash), fikrlarning samarasizlaridan samaralisini ajrata olish uquvi (egiluvchanlik); muammolar ustida noodatiy fikrlash va ularning noodatiy echimlarini topa oluvchi (originallik); qo'yilgan savolga va muammoga tez hamda to'liq javob olish xususiyati (tezligi) tarzda ifodalashni lozim topdik. Bu esa ikkinchi osttuzilmani tashkil etuvchi tafakkurni rivojlantirish komponentlarisiz uning mexanizmini yaqqol va to'liq ko'rinish olishini tasavvur etibbo'lmasligiga yana bir ishoradir.

Tafakkurni rivojlantirish mexanizmlarning uchinchi osttuzilmasini "Tafakkurni rivojlantirish prinsiplari, shart-sharoitlari ost tuzilmasi" bo'lib, ushbu osttuzilma talabalartafakkurini rivojlantirish jarayonida ta'sir ko'rsatuvchi ob'ektiv va sub'ektiv omillar, tafakkurni rivojlantirish jarayonida faoliyatni tashkil etish prinsiplarini o'z ichiga olgandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdullaeva S. A. Teoreticheskie podxodi k izucheniyu divergentnogo mishleniya budushix psixologov/-Izvestiya DGPU, No4, 2015. S.21-24.
2. Akimova M.K., Kozlova V.T. Diagnostika umstvennogo razvitiya detey. –S-Peterburg: Piter, 2006. –240s.
3. Askovskaya X., Miovska S. Razvitie kriticheskogo mishleniya cherez chtenie i pismo v Makedonii//Peremena, 2000. –No 1. –S.23-26.
4. Barotov Sh.R. Sosialno-psixologicheskie i nauchno-prakticheskie osnivi sozdaniya psixologicheskoy slujbi v Uzbekistane: Avtoref. diss. ... dokt. psixol. nauk. –Tashkent, 1998. –37s.